



TASHKENT  
INTERNATIONAL  
UNIVERSITY

# ГЛОБАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ВА ИННОВАЦИЯЛАР

илмий журнал

Глобальные исследования и инновации научный электронный журнал  
Journal of Global Research and Innovation

2026

илмий журнал

ГЛОБАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ВА ИННОВАЦИЯЛАР

2026/1(1)

## BOSH MAQOLA

## O'ZGARAYOTGAN DUNYODA YANGI AVLOD KADRLARINI TAYYORLASH

i.f.f.d. (PhD) Iskandar Yuldashev

Tashkent International University rektori

Butun dunyoda yuz berayotgan keng qamrovli o'zgarishlar endi mamlakatimiz universitetlaridan nafaqat meros qolgan bilimlarni uzatish, balki yangi g'oyalar yaratish, tadbirkorlarni tarbiyalash va sanoat inqilobidan buyon eng chuqur texnologik o'zgarishlarni boshidan kechirayotgan global iqtisodiyotda raqobatlasha oladigan bitiruvchilarni tayyorlash kabi dolzarb vazifalarni bajarishni taqazo etmoqda. Tashkent International University'ning *Global tadqiqotlar va innovatsiyalar* ilmiy jurnali aynan shu davrda ushbu vazifalarning ayrim yo'nalishlari bo'yicha baholi qudrat hissa qo'shish maqsadida tashkil etilmoqda. Zero, biz O'zbekistonning kelajakdagi farovonligi uning innovatsion bilimlarni yarata olish va amaliy qo'llay olish qobiliyatiga bog'liq deb ishonamiz.

TIU o'z rivojlanish yo'lida qanday ishlarni amalga oshirishga harakat qilayotganini tushunish uchun avvalo universitetlar hozirda faoliyat yuritayotgan maydonning shart-sharoitini tushunish zarur. Zero, hozirgi kunda global oliy ta'lim sektori bir vaqtning o'zida bir qator o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda.

Eng katta o'zgarish shuhbasiz sun'iy intellektdir (SI). 2024-yilda UNESCO so'rovnomasida respondentlarning o'ndan to'qqiztasi professional akademik ishlarida asosan tadqiqot va matnlarni yozish vazifalari uchun SI vositalaridan foydalanganliklarini tan oldilar. 2025-yilga kelib esa, bir nechta so'rovnomalarga ko'ra, butun dunyoda universitet talabalarining 92 foizi qaysidir shaklda SI dan foydalanmoqda — bu bir yil oldingi 66 foizdan keskin oshish bo'lganligini ko'rsatmoqda. Sun'iy intellektni talabalar tomonidan qabul qilish tezligi institutsional reaksiyadan yuqoriroq bo'lmoqda: ko'pchilik universitetlar hali ham SI siyosatlarini muhokama qilayotgan bo'lsa, talabalar allaqachon bu vositalarni kundalik akademik ishlariga integratsiya qilib bo'lishdi.

Ishonamizki, bu vaqtinchalik tendensiya emas. Global SI-ta'lim bozori 2025-yildagi taxminan 7,5 milliard dollardan 2034-yilga kelib 112 milliard dollarga oshishi kutilmoqda. Ushbu vositalar tadqiqotlar qanday olib borilishini, ta'lim olish qanday individuallashtirishini va talabalarni baholashlar qanday amalga oshirilishini tubdan o'zgartirmoqda. Garvard tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, SI asosida amalga oshiriladigan ta'lim olish tizimlaridan foydalangan talabalar an'anaviy usullarga nisbatan kamroq vaqt ichida ikki baravar ko'proq o'rganishmoqda.

Biroq, SI inqilobi universitetlar uchun ekzistensial savollarni ham tug'dirmoqda. Agar mashinalar adabiyotni umumlashtirishi, matn yozishi va hatto kod yaratishi mumkin bo'lsa, talabalar aniq nimani o'rganishlari kerak? Hozirgi zamonamizda ushbu savolga ishonchli tarzda javob bera oladigan universitetlar muvaffaqiyatga erishadigan universitetlar hisoblanadi, ya'ni bunday universitetlar insonlarga xos salohiyatlarini rivojlantirish orqali SI integratsiya qilingan iqtisodiyotda qanday qilib qiymat yarata olishini aniq ifodalay oladiganlar bo'ladi.

Ikkinchi muhim o'zgarish universitetlar va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi munosabatlarga tegishli bo'lib, butun dunyo bo'ylab hukumatlar universitetlardan nafaqat talabalarni o'qitish, balki innovatsiya ekotizimlarini boshqarish - patentlar ishlab chiqarish, spin-off kompaniyalar va tadqiqotlar tijoratlashtirilishini tobora ko'proq va kengroq miqyosda bajarilishini kutmoqda. Bunday tartib orqali Stanford, MIT va Seul milliy universiteti kabi dunyoning nufuzli oliy ta'lim institutlari texnologiya transferi orqali milliardlab dollar iqtisodiy qiymat yaratganligi bilan isbotlangan.

Universitetlarda innovatsiya ekotizimini yaratish bo'yicha bosim, ayniqsa, o'rta daromadlilar klubidagi davlatlarda kuchli. Xitoy, Hindiston, Braziliya, Turkiya va Isroil kabi turli mamlakatlar universitet tadqiqot natijalarini va tijoratlashtirish salohiyatini oshirish uchun agressiv dasturlarni amalga oshirish orqali muvaffaqiyatli universitet

tushunchasini o'zgartirmoqda va endi ular nafaqat o'qitish sifati, balki milliy innovatsiya salohiyatiga qo'shgan hisssasi bilan ham baholanmoqda.

Uchinchi o'zgarish - bu xalqaro reytinglar va akkreditatsiya orqali global institutsional nufuz uchun kuchayib borayotgan raqobat hisoblanadi. Times Higher Education World University Rankings endi 108 ta mamlakatdan 1900 dan ortiq universitetni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, QS va boshqa reyting tizimlari ham ko'payib bormoqda, ularning har biri biroz farqli metodologiyalarni qo'llaydi, ammo barchasi alaloqibat universitetlarning institutsional strategiyalarini shakllantiradigan kuchli rag'batlantirish tuzimlarini yaratadi. Ushbu xalqaro reyting tashkilotlariga muqobil sifatida har bir davlatda mahalliy reyting tashkilotlari ham faoliyat olib bormoqda. Mamlakatimizda ham Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi tomonidan mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan universitetlarning milliy reytingini yuritish vazifasi belgilangan bo'lib, ushbu milliy reyting mamlakatimizdagi eng yaxshi universitetlarni aniqlashda asosan akademik faoliyat, ilmiy-tadqiqot, xalqaro reputatsiya va bitiruvchilarning ishga joylashishi kabi ko'rsatkichlarni belgilab olgan.

Xalqaro nufuz uchun universitetlararo raqobatning ijobiy jihatlari ham mavjud bo'lib, u orqali ilmiy mahsuldorlikni oshirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va sifatni ta'minlash bo'yicha universitetlarga bosim yaratiladi. Biroq u ayrim ko'zda tutilmagan xavflarni ham yuzaga keltiradi. *Scientometrics* jurnalida chop etilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, dunyoda eng tez yuqorilagan ayrim universitetlar o'z natijalariga bibliometrik nomutanosibliklar orqali erishgan, ya'ni ushbu universitetlar professor-o'qituvchilari tomonidan chop etilgan ilmiy maqolalarda birinchi mualliflik ulushining keskin kamayishi, STEM yo'nalishlarida nomutanosib darajada o'sish hamda ilmiy halollik bo'yicha savollarni keltirib chiqaradigan boshqa bir qator tendensiyalar kuzatilgan. Reytinglar bo'yicha bunday "o'yinlar", albatta, ko'rsatkichlarni sun'iy yaxshilashga yo'naltirilgan noto'g'ri strategiyalarni ko'paytirishi mumkin. Ammo, reallik shuni ko'rsatmoqdaki, uzoq muddatli davrda bunday egri strategiyalar bilan reytingning yuqori pog'onalariga "uchgan" universitetlar, qisqa vaqt ichida yana o'zlarining pastdagi "taxt"lariga qaytishmoqda.

To'rtinchi o'zgarish diplom va bandlik o'rtasidagi munosabatga taalluqlidir. An'anaviy to'rt yillik ta'lim dasturlari muqobil ta'lim ko'rinishlari bilan tobora kuchli raqobatga duch kelmoqda. Jahon iqtisodiy forumi prognoziga ko'ra, 2030 yilga borib xodimlar ko'nikmalarining 39 foizi yangilanishi yoki tubdan o'zgarishi zarur bo'ladi. Shu jarayonga javoban mikro-kvalifikatsiyalar va amaliy muammolarni hal etishga qaratilgan sertifikatlar ommalashib bormoqda. 2025 Micro-Credentials Impact Report ma'lumotlariga ko'ra, 90 foiz talabalar professional sertifikatlar ularga ish beruvchilar oldida ajralib turishga yordam beradi deb hisoblaydi, ish beruvchilarning 72 foizi esa mikro-kvalifikatsiyalarga ega nomzodlarni ishga olish ehtimoli yuqoriroq ekanligini bildirgan.

Universitetlar bunga javoban kvalifikatsiyalarni ta'lim dasturlariga integratsiya qilmoqda, Google va IBM kabi kompaniyalar bilan hamkorlikni kengaytirmoqda hamda o'quv dasturlarini abstrakt bilimdan ko'ra amaliy ko'nikmalarga ko'proq urg'u beradigan tarzda qayta ko'rib chiqmoqda. Bizningcha, kelajakda muvaffaqiyat qozonadigan universitetlar bitiruvchilariga mazmunli mehnat faoliyatiga olib boruvchi aniq yo'lni ishonchli tarzda taklif qila oladigan universitetlar sanaladi.

Beshinchi muhim o'zgarish sifatida universitetlar xalqaro talabalar va professor-o'qituvchilar uchun tobora keskinlashib borayotgan raqobat sharoitida faoliyat yuritayotganini keltirish mumkin. Zero, davlatlar mobil inson kapitalini jalb etishning iqtisodiy va demografik afzalliklarini tobora chuqurroq anglashmoqda. Ayrim rivojlangan davlatlarda aholining qarish sur'atlarining tezlashishi ushbu jarayonni yanada jadallashtirib, iqtidorli xalqaro talabalar va tadqiqotchilarni faol jalb etish siyosatining kengayishiga olib kelmoqda.

Ushbu raqobat oliy ta'lim sektorida talabalar va professor-o'qituvchilar uchun yuz berayotgan transformatsiya jarayonlarini jadallashtirmoqda. Kanada, Avstraliya va Germaniya kabi davlatlar ayrim an'anaviy yo'nalishlar kamroq ochiq bo'lib borayotgan bir paytda ham xalqaro talabalarni jalb etish siyosatini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, rivojlangan davlatlar transmilliy ta'lim strategiyalarini kuchaytirib, rivojlanayotgan hududlarda — xususan Markaziy Osiyoda — o'z universitetlari filiallarini ochish va universitetlar akademik dasturlari franchizasini taqdim etish tashabbuslarini ko'paytirmoqda. Markaziy Osiyo uchun bu jarayon bir tomondan miyalar oqimi xavfini yumshatsa, boshqa tomondan esa mintaqaviy oliy ta'lim ekotizimida raqobatni kuchaytirib xalqaro integratsiyasini tezlashtiruvchi muhim omilga aylanmoqda.

Qanchalik qiyin va murakkab bo'lishiga qaramasdan O'zbekiston oliy ta'lim tizimini ushbu tizim uchun qisqa vaqt bo'lgan o'n yildan kam bo'lgan muddat ichida kompleks modernizatsiya qilishga urinmoqda. 2017 yildan buyon

O'zbekistonda oliy ta'limni isloh qilishga oid 300 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan prezident farmonlari, hukumat qarorlari va yangi qonunchilik tashabbuslari qabul qilindi. Universitetlar soni 2016 yildagi 77 tadan bugungi kunda 200 tadan oshdi, shundan 33 tasi xorijiy universitetlar va ularning filiallaridir. Oliy ta'limdagi talabalar soni esa qariyb to'rt baravar oshib, 2026-yilga kelib 1.7 millionga yaqinlashdi. Eng quvonarlisi, mamlakatimizda xorijiy talabalarning ham soni oshmoqda va u bugungi kunda 20 mingdan oshdi.

Mazkur islohotlar uchun asosiy yo'l xaritasi 2023-yil sentabr oyida qabul qilingan va joriy yilning 16-fevralida yangilangan O'zbekiston–2030 strategiyasi hisoblanadi. Ushbu milliy rivojlanish dasturi ta'lim sohasi uchun yuksak maqsadlarni belgilaydi, jumladan oliy ta'lim qamrovini yoshlar orasida kamida 50 foizga yetkazish (bugungi kunda taxminan 44 foizga yetdi), 30 ta universitetda ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish, O'zbekistonning 10 ta oliy ta'lim muassasasini dunyoning TOP-1000 universitetlari reytingiga kiritish, global TOP-500 talikka kiruvchi xorijiy universitetlar bilan 50 ta qo'shma ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish hamda ilmiy salohiyatni 70% ga yetkazish kabi muhim strategik maqsadlar shular jumlasidandir.

Strategiyadagi oliy ta'lim bo'yicha maqsadlardan uning milliy ustuvor yo'nalishlari tubdan qayta yo'naltirilganini ilg'ash mumkin. Ilgari O'zbekiston universitetlarining asosiy vazifasi rejalashtirilgan iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlash bo'lgan bo'lsa, endilikda ulardan innovatsiyalarni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda oldingi avlod davrida deyarli mavjud bo'lmagan mehnat bozori sharoitiga mos mutaxassislar tayyorlash kutilmoqda. Strategiyada inson kapitali uzoq muddatli raqobatbardoshlikning hal qiluvchi omili sifatida aniq belgilangan.

Biroq, faqat intilishning o'zi muvaffaqiyatga olib bormasligi hammaga kunday ravshan. Shuning uchun ham O'zbekiston oliy ta'lim tizimi rivojlanish jarayonida to'siq bo'layotgan bir qator tabiiy muammolar va cheklovlarni strategiyalar bilan bosqichma-bosqich hal etib borish yo'lidan bormoqda. O'zbekiston oliy ta'lim tizimi yuzlashayotgan vazifalar quyidagilarda yaqqol ko'rinadi.

Avvalo, professor-o'qituvchilar salohiyati bilan bog'liq yo'nalishda izchil rivojlantirish vazifalari mavjud. Mamlakatdagi oliy ta'lim muassasalarida ilmiy salohiyat — ya'ni ilmiy darajaga ega hamda faol tadqiqot olib borayotgan professor-o'qituvchilar ulushi — hozirgi paytda 50 foizga yaqin. So'nggi yillarda ushbu ko'rsatkichni oshirish bo'yicha muhim ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, ayrim universitetlarda, ayniqsa STEM yo'nalishlari, sun'iy intellekt, ma'lumotlar fani va kiberxavfsizlik kabi yangi fanlar kesimida yuqori malakali professor-o'qituvchilarga ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

Ikkinchidan, infratuzilmani rivojlantirish yo'nalishida ham izchil davom ettirish zarur bo'lgan vazifalar mavjud. Yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilganiga qaramay, ayrim universitetlarda, ayniqsa hududiy oliy ta'lim muassasalarida, zamonaviy tadqiqot infratuzilmasini yanada kuchaytirish zarurati saqlanib qolmoqda. Zamonaviy laboratoriyalar, hisoblash klasterlari va maxsus ilmiy uskunalarni tizim bo'ylab yanada muvozanatli taqsimlash bu jarayonning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Uchinchidan— va ehtimol eng muhim vazifalardan biri — pedagogik yondashuvlarning izchil yangilanishi bilan bog'liq. Yodlashga asoslangan ta'limdan tanqidiy fikrlashga, bilimni uzatishdan bilim yaratishga o'tish nafaqat yangi o'quv dasturlarini, balki zamonaviy o'qitish amaliyotlari, yangilangan baholash usullari hamda professor-o'qituvchilarning pedagogik yondashuvlaridagi o'zgarishlarni talab etadi. Bu jarayon, avvalo, pedagogik yondashuvlar transformatsiyasi bo'lib, u odatda bosqichma-bosqich shakllanadi.

Har qanday jiddiy institutsional strategiya ushbu omillarni inobatga oladi. TIU yondashuvi esa cheklovlar mavjud emasdek qarash emas, balki universitet strategiyasi va faoliyatini ularni tizimli ravishda hal etishga yo'naltirilgan tarzda shakllantirishdan iborat.

Oliy ta'lim muassasi sifatida Tashkent International University 2023 yil oktyabr oyida tashkil etildi va shu jihatdan O'zbekistonda shakllanayotgan universitetlarning yangi avlodiga mansubdir. Universitetning tashkil etilish vaqti strategik tanlov bo'lib, TIU mavjud institutni keyinchalik yangi talablarga moslashtirish zaruratidan kelib chiqib emas, balki boshidanoq O'zbekiston–2030 strategiyasida belgilangan vazifalar doirasida, global oliy ta'lim tendensiyalari hamda zamonaviy mehnat bozori ehtiyojlariga uyg'un tarzda konseptual asosda barpo etildi.

TIU'ning 2026–2030 yillarni qamrab oluvchi besh yillik strategik rejasi o'zaro uzviy bog'liq besh ustuvor yo'nalish asosida shakllantirilgan: akademik rivojlanish, tadqiqotlar sifati va ta'siri, xalqaro hamkorlik, sanoat va ish

beruvchilar bilan hamkorlik, hamda institutsional barqarorlik. Har bir yo‘nalish universitet faoliyatining muhim o‘lchovini ifodalaydi va aynan shu yo‘nalishlarda biz yuqori natijalarga erishishni maqsad qilganmiz.

Birinchi ustuvor yo‘nalishimiz — asosiy ta’lim dasturlarimizni xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazishdir. Jumladan, biznes, IT, huquqshunoslik, ta’lim va psixologiya yo‘nalishlari ushbu jarayonning markazida turadi. Shu maqsadda biz FIBAA, ABET, CAEP hamda huquq yo‘nalishi bo‘yicha xalqaro akkreditatsiya va sifatni baholash tizimlarida tan olinish ustida ishlamoqdamiz. 2030 yilga borib kamida uchta ta’lim dasturimizni xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazishni maqsad qilganmiz.

Biroq akkreditatsiya yakuniy maqsad emas, balki vositadir. Asosiy maqsad — bitiruvchilarimiz zamonaviy mehnat bozorida haqiqatan qadrlanadigan ko‘nikmalarga ega bo‘lishini ta’minlashdir. Bu, masalan iqtisodiyot yo‘nalishi o‘quv dasturlarini CFA, ACCA va PMI kabi professional sertifikatlar talablari bilan uyg‘unlashtirishni anglatadi. Shuningdek, ko‘p tillilik kompetensiyasini rivojlantirish muhim yo‘nalish hisoblanadi: 2028 yilga borib asosiy fanlarning 50 foizini ingliz tilida ham o‘qitishga o‘tish, 2030 yilga kelib esa barcha yo‘nalishlar bo‘yicha ta’lim jarayoni to‘liq ingliz tilida o‘tiladigan guruhlar tashkil etishni maqsad qilganmiz. Bundan tashqari, yumshoq ko‘nikmalar, raqamli savodxonlik va tadbirkorlik kompetensiyalari dasturlarimizda fakultativ element sifatida emas, balki asosiy talab sifatida tizimli ravishda integratsiya qilinmoqda.

Ta’lim dasturlarimiz portfeli strategik yondashuv asosida bosqichma-bosqich kengaytirilmoqda. Jumladan, data science, energetika iqtisodiyoti, amaliy sun‘iy intellekt hamda barqaror rivojlanish yo‘nalishlarida yangi dasturlarni yo‘lga qo‘yish rejalashtirilmoqda. Har bir yangi dastur mehnat bozori ehtiyojlari va milliy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga tayangan holda shakllantiriladi. 2030 yilga borib kamida to‘rtta yangi bakalavriat va ikkita yangi magistratura dasturini ishga tushirishni maqsad qilganmiz.

Oliy ta’lim tizimining rad etib bo‘lmas achchiq haqiqati shuki, hech bir universitet ta’lim sifati o‘zining professor-o‘qituvchilari salohiyatidan yuqori bo‘la olmaydi. Shu bois ham kadrlar siyosatimizda xalqaro miqyosda tan olingan oliy ta’lim muassasalarida doktorlik darajasini olgan, faol ilmiy tadqiqot olib borayotgan hamda o‘qitish bo‘yicha muayyan tajribaga ega mutaxassislarni jalb etishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. 2030 yilga borib professor-o‘qituvchilarimizning 70 foizi doktorlik darajasiga ega bo‘lishi, kamida 30 foizi esa xalqaro ta’lim tajribasiga ega bo‘lishini maqsad qilganmiz.

TIU o‘z faoliyatini faqat ta’lim beruvchi muassasa sifatida emas, balki O‘zbekiston va Markaziy Osiyo uchun strategik ahamiyatga ega masalalar bo‘yicha tahlil va siyosiy qarorlar uchun foydali tadqiqotlar ishlab chiqadigan haqiqiy strategik tahlil markazi sifatida ham rivojlantirishni maqsad qilgan. 2030 yilga borib har bir professor-o‘qituvchining yiliga kamida bitta maqolasi Scopus yoki Web of Science indekslangan jurnallarda chop etilishi, nashrlarning kamida 20 foizi esa yuqori kvartil (Q1) jurnallarda e‘lon qilinishi maqsad qilingan.

TIUning xalqaro hamkorlik yo‘nalishida biz talabalar almashinuvi, professor-o‘qituvchilar hamkorligi hamda qo‘shma tadqiqotlarni rivojlantirish maqsadida dunyoning TOP-500 taligiga kiruvchi universitetlar bilan hamkorlikni kengaytirishga intilmoqdamiz. Universitet talabalari va professor-o‘qituvchilari Turkiya, Janubiy Koreya, Malayziya va Shvetsiya kabi davlatlarda akademik mobillik dasturlari asosida yuborilmoqda. 2030 yilga borib 200 dan ortiq faol hamkorlik kelishuvlarini yuritish, har yili kamida 2% talabalarimizni xalqaro almashinuv dasturlariga yuborish hamda kamida to‘rtta xalqaro konferensiyani birgalikda tashkil etish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, universitetimiz xalqaro reyting tizimlarida ishtirok etish ustida ham ishlamoqda. Bu yo‘nalishdagi asosiy maqsadimiz 2029 yilga qadar QS Stars sertifikatiga ega bo‘lish va 2030 yilga borib kamida bitta fan yo‘nalishi bo‘yicha xalqaro reytingda o‘rin egallashdir.

Muhim yo‘nalishlardan yana biri, bu shuhbasiz xalqaro talabalarni jalb etishdir. Hozirgi kunda universitetda Rossiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Tojikiston va Afg‘onistondan jami 10 nafar xorijiy talaba tahsil olmoqda, shuningdek Qozog‘istondan 2 nafar talaba talabalar almashinuvi dasturi doirasida o‘qishni davom ettirmoqda. Biz Markaziy Osiyo, MDH va Janubiy Osiyo mamlakatlaridan talabalarni qabul qilishni kengaytirishni maqsad qilganmiz. 2030 yilga kelib xalqaro talabalar umumiy kontingentning 10 foizini tashkil etishi va kamida 10 ta turli mamlakatdan bo‘lishi ko‘zda tutilmoqda. TIUning mintaqaviy markaz sifatida shakllantirish, ya’ni mintaqaning eng iqtidorli talabalari o‘z yurtida teng imkoniyat topa olmaganida tanlaydigan manzilga aylantirish, bizning asosiy strategik maqsadlarimizdan biridir.

Boshqa universitetlardan ajralib turishga harakat qilayotganimiz eng muhim yo‘nalishlardan biri — tadbirkorlik ta‘limiga bo‘lgan yondashuvimizdir. Maqsadimiz faqat ish topa oladigan bitiruvchilarni emas, balki yangi ish o‘rinlari yarata oladigan, o‘z tashabbuslari bilan biznes boshlashga qodir mutaxassislarni tayyorlashdir. Zero, kuni kecha Prezidentimiz aytganlaridek, so‘rovnomalarda ishtirok etgan bugungi yoshlarimizning har uchtdan biri o‘z tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish haqida o‘ylamoqda.

2030 yilga borib TIU talabalari har yili kamida 5 ta startapni yo‘lga qo‘yishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu jarayon universitetimiz innovatsiya laboratoriyasi va biznes inkubatsiya xizmatlari orqali qo‘llab-quvvatlanadi. Ushbu startaplarning kamida 60 foizi ikki yildan ortiq faoliyatini davom ettirishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, yetakchi ish beruvchilar bilan barqaror hamkorlik tizimi shakllantirilmoqda. Hozirgi kunda nafaqat mamlakatimizdagi balki xorijdagi ham kompaniyalar bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ymoqdami. 2030 yilga qadar kamida 100 ta faol korporativ hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsad qilingan. Mazkur hamkorliklar talabalarning kamida 20 foizini qamrab oluvchi haq to‘lanadigan amaliyotlar, hamkorlikdagi loyihalar, amaliyotchi mutaxassislarni ishtirokidagi ma‘ruzalar hamda bandlikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilgan imkoniyatlarni o‘z ichiga oladi. Sanoat va ish beruvchilar nuqtayi nazarini o‘quv dasturlarini shakllantirish jarayoniga tizimli ravishda integratsiya qilinib, bitiruvchilarimiz mehnat bozori haqiqatan talab qiladigan kompetensiyalarga ega bo‘lishi ta‘minlanadi.

Bularning barchasi nima uchun muhimligi haqida ba‘zi mulohazalar bilan yakunlashga ruxsat bering. O‘zbekiston deyarli 38 million aholili mamlakat bo‘lib, 2030-yilga kelib 40 millionga yetishi kutilmoqda. Aholimizning aksariyati yoshlardan iborat ekanligi — biz uchun demografik sovg‘a bo‘lib, yoshlarimiz o‘zlariga munosib bo‘lgan ta‘lim va imkoniyatlarni olish yoki olmasligiga qarab bu sovg‘a dividend yoki majburiyatga aylanishi mumkin. "O‘zbekiston–2030" strategiyasi buni e‘tirof etgan holda inson kapitalini rivojlantirishni milliy siyosatimizning markaziga qo‘ygan.

Ammo inson kapitali shunchaki mavjud ishlar uchun ishchilar tayyorlash masalasi emas. Zamonaviy texnologiyalar va zaruriy ko‘nikmalar doimiy ravishda o‘zgarayotgan dunyoda eng qimmatli qobiliyat o‘rganish, moslashish va yaratish qobiliyatidir. Universitetlar esa ushbu qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynashi zarur, ya‘ni bilimlarni shunchaki og‘zaki yetkazish emas, balki tahlil, tanqid, va munozara orqali bilim hamda malakalarni chuqurroq egallashning izchil tizimini yo‘lga qo‘yishi kerak.

Har bir buyuk yo‘l birinchi qadamdan boshlanadi. Universitetimiz ilm-fan sohasidagi yo‘lining ana shu birinchi qadami sifatida bugun ushbu jurnal ishga tushmoqda. Bizning maqsadimiz — yillar o‘tib, "TIU Journal of Global Research and Innovation" nomi xalqaro ilmiy hamjamiyatda nufuzli ilmiy nashr sifatida tilga olinishi. Bu yo‘lda biz qat‘iyat va sabr bilan harakat qilishga tayyormiz.

Yangi O‘zbekistonning yorug‘ kelajagi sari intilayotgan har bir vatandoshning sa‘y-harakati, har bir bilim olingan kuni, har bir muvaffaqiyatli ilmiy loyihasi — bu millat va Vatan oldidagi muqaddas vazifasi sanaladi. Umid qilamanki, ushbu jurnal ana shu yo‘ldagi bir kichik, lekin ahamiyatli bir qadamdir.

ILMIY MAQOLA

# ТРАНСФОРМАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА: СУЩНОСТЬ, ОСНОВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Бекмурадов Адхам Шарипович

*Доктор экономических наук, профессор*

*Советник ректора Tashkent International University*

\* Bog'lanish uchun: [adkham.bek@gmail.com](mailto:adkham.bek@gmail.com)

*Qabul qilindi: 03.03.2026 y. | Qayta ko'rib chiqildi: 04.03.2026 y. | Chop etildi: 2026-yil 7-mart*

## ANNOTATSIA

Maqolada O'zbekiston iqtisodiyotining zamonaviy transformatsiya bosqichi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning qisqa muddatli dinamikasi orqali emas, balki institutsional o'zgarishlar prizmasi orqali tahlil qilinadi. Tadqiqotda amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiy boshqaruv tizimining bosqichma-bosqich va tizimli transformatsiyasi ekanligi asoslab beriladi. Ushbu jarayon institutlarning mustahkamlanishi, makroiqtisodiy barqarorlikning kuchayishi hamda iqtisodiy siyosatning prognoz qilinuvchanligi oshishi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqotda mazkur o'zgarishlarning "sokin" yoki kam seziladigan xarakteri alohida ta'kidlanadi. Bunday o'zgarishlar ko'pincha qisqa muddatli statistik ma'lumotlarda yoki jamoatchilik idrokida yaqqol ko'rinmasligi mumkin, biroq ular iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Konseptual-analitik va institutsional yondashuv doirasida davlatning iqtisodiyotdagi roli evolyutsiyasi, shuningdek iqtisodiy agentlarning xulq-atvoriga hamda islohotlar natijalarini kechikib qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida ishonch va strategik rejalashtirishning ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, hozirgi institutsional transformatsiya mamlakat iqtisodiyotining o'rta va uzoq muddatli istiqbolda yanada muvozanatli hamda barqaror rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratmoqda.

**KALIT SO'ZLAR:** *Экономическая трансформация; институциональные изменения; экономическое управление; макроэкономическая стабильность; стратегическое развитие, предсказуемость экономической политики*

## 1. ВВЕДЕНИЕ

В своем обращении парламенту и народу страны наш Президент особо подчеркнул, что в 2025 году «наша экономика сформировалась по-новому, мы расширили рыночные отношения, социальную защиту, укрепили верховенство закона... Мы научились превращать реформы в конкретный практический результат»<sup>1</sup>.

Интерес к экономическим реформам в Узбекистане стремительно растет. Социальные сети буквально трещать разными роликами об экономических успехах Узбекистана в последние годы. И на самом деле, в стране происходит не набор отдельных реформ, а тихая, обдуманная, системная трансформация экономической логики, эффект которой нельзя адекватно оценить в краткосрочном горизонте. Вообще, правильная оценка трансформационных процессов в экономике требует обдуманного анализа, обобщения результатов и их научно обоснованной интерпретации.

Подчеркивая стратегический характер трансформационных реформ в экономике Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев неоднократно отмечал, что реформы — это не разовые кампании, а последовательный и необратимый процесс, основанный на сильных институтах и ответственности за результат. В этом смысле очень сложно переоценить значение подписанного 30 октября 2025 года Президентом страны Указа «Об организационных мерах по внедрению системы стратегического планирования и развития»<sup>2</sup>, который создает

<sup>1</sup>Послание Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева Олий Мажлису и народу Узбекистана. Народное слово, 27 декабря 2025 года. С.1.

<sup>2</sup>Указ Президента Республики Узбекистан УП-201 от 30 октября 2025 года «Об организационных мерах по внедрению системы стратегического планирования и развития».

очень сильную организационно-правовую основу для дальнейшего развития страны в условиях глобальной турбулентности на мировой арене.

В последние годы экономика Узбекистана демонстрирует устойчивую положительную динамику ключевых макроэкономических показателей, включая темпы экономического роста, инвестиционную активность и постепенное снижение инфляции. Эти индикаторы нередко используются как основные критерии оценки результативности проводимых реформ. Однако в условиях глубокой структурной и институциональной трансформации количественные показатели не всегда позволяют адекватно отразить характер и направленность происходящих изменений.

Существенная часть трансформационных процессов проявляется на уровне институтов, механизмов экономического управления и логики принятия решений, формируясь постепенно и оставаясь малозаметной в краткосрочной статистике. Современный этап развития экономики Узбекистана характеризуется именно такими системными изменениями.

Речь идёт не о совокупности изолированных мер экономической политики, а о последовательной перестройке институциональных оснований экономической системы. Усиление макроэкономической дисциплины, развитие практик стратегического планирования и повышение роли предсказуемых, формализованных правил экономического управления свидетельствуют о формировании новой модели экономической политики. Подобные изменения, как правило, не сопровождаются немедленным и наглядным эффектом, однако оказывают определяющее влияние на долгосрочную устойчивость экономического развития.

В этом контексте возникает аналитическая проблема ограниченной «видимости» институциональной трансформации в общественном восприятии. Экономические агенты и население в целом склонны оценивать экономическую динамику преимущественно через призму краткосрочных факторов — уровня цен, текущих доходов и непосредственных социальных эффектов. В результате структурные сдвиги, затрагивающие стимулы, ожидания и поведенческие установки, зачастую воспринимаются с временным лагом. Данный разрыв между объективным характером институциональных изменений и их субъективным восприятием имеет важное значение для формирования доверия к экономической политике и устойчивости реформ.

**Цель настоящей статьи** заключается в анализе текущей экономической трансформации в Узбекистане через призму качественных институциональных изменений, а не исключительно через динамику количественных макроэкономических показателей.

В рамках исследования предпринимается попытка выявить ключевые направления данной трансформации, раскрыть её системный характер и объяснить причины отложенного общественного восприятия её результатов. Особое внимание уделяется роли макроэкономической стабильности, стратегического планирования и эволюции функций государства в формировании новой логики экономического управления.

**Методологической основой исследования** выступает концептуально-аналитический и институциональный подход, рассматривающий экономическую трансформацию как длительный и многоуровневый процесс. Анализ базируется на интерпретации ключевых направлений экономической политики, институциональных реформ и управленческих практик, а также на сравнительном осмыслении текущего этапа преобразований в сопоставлении с предыдущими реформаторскими попытками. Такой подход позволяет выйти за рамки краткосрочной оценки и предложить целостное понимание глубинных изменений, происходящих в экономике Узбекистана.

**Научная новизна исследования** заключается в интерпретации текущих экономических преобразований в Узбекистане как формы «тихой институциональной трансформации», проявляющейся преимущественно через изменение логики экономического управления, ожиданий и поведенческих установок экономических агентов, а не через краткосрочную динамику макроэкономических показателей. Такой подход позволяет по-новому осмыслить природу устойчивости экономических реформ в условиях переходной экономики.

## **1.1 Мы живём внутри процесса, который сложно измерить.**

Экономические изменения чаще всего оцениваются через количественные показатели — темпы роста, объёмы инвестиций, уровень инфляции или динамику доходов населения. И действительно, рост экономики на уровне 7,7%, привлечение зарубежных инвестиций в объёме более 43 млрд. долларов, сокращение инфляции до уровня 7,3% свидетельствуют о впечатляющих успехах экономики страны. Эти индикаторы важны, поскольку позволяют фиксировать текущее состояние экономики и сравнивать его с предыдущими периодами. Однако они далеко не всегда отражают глубинные процессы, происходящие внутри экономической системы, особенно в периоды структурных и институциональных преобразований.

В этом смысле современный этап развития экономики Узбекистана представляет собой показательный пример. За последние годы в стране происходят изменения, которые не всегда выглядят впечатляюще в

краткосрочной статистике, но при этом закладывают качественно иную логику функционирования экономических институтов. Речь идёт не столько о разовых реформах или отдельных мерах экономической политики, сколько о постепенной трансформации принципов принятия решений, механизмов регулирования и взаимодействия государства с экономическими агентами.

Подобные изменения редко бывают заметны сразу. Они не сопровождаются резкими скачками показателей и, как правило, не дают мгновенного социально-экономического эффекта. Напротив, их ключевая особенность заключается в том, что результат проявляется со временем — через повышение устойчивости экономики, предсказуемости экономической политики и укрепление доверия между государством, бизнесом и обществом. Ведь инициированная Президентом страны формат общения с предпринимателями ставит перед собой цель «пощупание пульса бизнеса». Именно поэтому такие процессы можно охарактеризовать как «тихую трансформацию»: они происходят без громких деклараций, но обладают долгосрочным системным значением.

Цель данной статьи — рассмотреть происходящие в экономике Узбекистана изменения именно в этом ракурсе: не через призму отдельных показателей или программ, а с точки зрения качества институциональных сдвигов. Такой подход позволяет лучше понять, почему текущие преобразования требуют времени, почему их эффект не всегда очевиден на поверхности и почему именно сейчас формируется основа для более устойчивого и сбалансированного экономического развития в среднесрочной перспективе.

## 1.2 Что значит «качественная трансформация» экономики?

Говоря о трансформации экономики, важно сразу провести принципиальное различие между отдельными реформами и качественными изменениями системного характера. Экономические реформы могут быть фрагментарными, точечными и даже эффективными в краткосрочном плане, не затрагивая при этом фундаментальных основ функционирования экономической системы. Качественная же трансформация предполагает изменение самой логики экономического управления — тех принципов, на которых принимаются решения, распределяются ресурсы и формируются стимулы для экономических агентов.

Одним из ключевых признаков такой трансформации является постепенный переход от ситуативного, во многом реактивного управления экономикой к более устойчивой системе правил. В условиях ручного управления решения часто принимаются в ответ на текущие вызовы и кризисные ситуации, что делает экономическую политику менее предсказуемой и усиливает зависимость от краткосрочных факторов. Формирование же устойчивых правил и процедур позволяет снизить неопределённость, создать понятные ориентиры для бизнеса и инвесторов и повысить общую стабильность экономической среды.

Особое значение в этом процессе приобретают институциональные изменения. Американский экономист-институционалист Дуглас Норт отмечал: «Институты — это правила игры в обществе, и именно они определяют направление экономического развития»<sup>3</sup>.

Именно институты — финансовые, бюджетные, регуляторные и правовые — задают рамки, в которых функционирует экономика. В отличие от отдельных мер экономической политики, институциональные сдвиги не дают мгновенного эффекта и редко отражаются в оперативной статистике. Однако именно они формируют долгосрочную устойчивость экономической системы, обеспечивая её способность адаптироваться к внутренним и внешним шокам. Здесь, среди ряда министерств и ведомств экономического блока, я бы хотел отметить совершенно новый облик Центрального банка Республики Узбекистан, который постепенно превращается в главный регулятор экономического развития страны.

Важным элементом качественной трансформации является изменение роли государства в экономике. Речь не идёт о сокращении государственного присутствия как такового, а о переосмыслении его функций. Государство постепенно смещает акцент с прямого участия в хозяйственной деятельности на создание правил игры, развитие инфраструктуры, обеспечение макроэкономической стабильности и защиту конкуренции. Такая эволюция позволяет высвободить пространство для частной инициативы, одновременно усиливая ответственность государства за качество регулирования.

Неотъемлемой составляющей трансформационных процессов становится рост значения доверия и предсказуемости экономической политики в нашей стране. Доверие формируется не декларациями, а последовательностью действий, прозрачностью институтов и устойчивостью принятых решений. В условиях, когда экономические агенты могут рассчитывать на стабильность правил и понятность сигналов со стороны государства, доверие начинает выполнять функцию самостоятельного экономического ресурса, снижая транзакционные издержки и стимулируя долгосрочные инвестиции.

---

<sup>3</sup>North D. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press, 1990.

Личное приглашение со стороны Президента США Дональда Трампа Президента Республики Узбекистан в Давос (Швейцария) для подписания учредительных документов «Совета мира» является ярким проявлением доверия и признания прежде всего успехов Узбекистана в сфере стратегического развития, усиления его экономической мощи и инвестиционной привлекательности.

Наконец, качественные изменения находят своё отражение в трансформации экономического поведения. По мере укрепления институтов и повышения предсказуемости политики меняются горизонты планирования бизнеса и домохозяйств, возрастает ориентация на инвестиции, повышение производительности и развитие человеческого капитала. Эти сдвиги не всегда заметны сразу, но именно они свидетельствуют о глубине и необратимости трансформационных процессов, происходящих в экономике.

## **2. ЭКОНОМИКА КАК СИСТЕМА: КЛЮЧЕВЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ В МЕХАНИЗМЕ.**

Одной из ключевых особенностей текущего этапа экономических преобразований в Узбекистане является постепенное смещение акцента в сторону макроэкономической стабильности как самостоятельной цели экономической политики. Если ранее приоритет нередко отдавался краткосрочным задачам и ситуативным решениям, то сегодня всё более заметным становится стремление выстроить устойчивую и управляемую макроэкономическую среду. Контроль над инфляцией, сбалансированность бюджета и управление рисками рассматриваются не как вспомогательные инструменты, а как фундамент долгосрочного развития.

Особо хотел бы отметить тот факт, что указанные результаты достигаются прежде всего благодаря сплоченной и взаимосвязанной работе основных министерств и ведомств. Ведь важнейшей целью административных реформ, начатых в стране в 2022 году, являлась именно достижение институционального единства инициирования и реализации стратегических программ развития страны.

В этом контексте усиливается роль экономических институтов, а не отдельных управленческих решений. Опыт стран, прошедших путь глубокой экономической трансформации, подтверждает этот подход. В частности, первый премьер-министр Сингапура Ли Куан Ю подчёркивал, что «Экономический успех — это прежде всего результат институтов и дисциплины, а не случайного везения»<sup>4</sup>.

Экономическая система всё в большей степени опирается на формализованные механизмы — денежно-кредитную политику, бюджетные процедуры, финансовый надзор и регуляторную среду. Именно эти элементы формируют внутренний «каркас» экономики, обеспечивая её предсказуемость и устойчивость независимо от текущей конъюнктуры. Такой сдвиг снижает зависимость результатов экономической политики от персональных факторов и повышает институциональную ответственность.

Параллельно происходит изменение логики государственного регулирования. Государство постепенно отходит от прямого административного вмешательства в экономические процессы, делая акцент на создании условий для функционирования рынков. Регулирование становится более селективным и ориентированным на установление единых правил и стандартов, что способствует формированию более конкурентной среды и снижению барьеров для экономической активности. Это не означает ослабления роли государства, а отражает её качественную трансформацию — от участника рынка к его арбитру и гаранту правил.

Заметные изменения происходят и в финансовой системе, роль которой в экономике постепенно расширяется. Банковский сектор и финансовые рынки всё в большей степени выполняют функцию передачи сигналов экономической политики в реальный сектор. Развитие механизмов финансового посредничества усиливает связь между макроэкономическими решениями и инвестиционной активностью, создавая предпосылки для более устойчивого и долгосрочного экономического роста.

Бюджетная политика также приобретает более стратегический характер. Бюджет всё чаще рассматривается не только как инструмент покрытия текущих расходов, но и как механизм реализации приоритетов развития. Возрастает значение среднесрочного планирования, оценки эффективности бюджетных расходов и прозрачности фискальных процессов. Такой подход позволяет повысить качество государственных инвестиций и усилить их влияние на структурные изменения в экономике.

Наконец, важным, хотя и менее заметным элементом происходящих изменений становится формирование новой культуры экономического управления. В управленческой практике постепенно закрепляются

---

<sup>4</sup>Lee Kuan Yew. From Third World to First. Harper Collins, 2000.

принципы аналитического подхода, оценки последствий принимаемых решений и ответственности за результат.

Особо хотелось бы отметить значение Координационного совета по стратегическому планированию и развитию при Президенте Республики Узбекистан, которому, наряду с другими задачами, возложена задача по анализу актуальных проблем и вызовов в социально-экономической, общественно-политической, технологической, гуманитарной, экологической и других сферах, разработке предложений по их решению, а также формирование идей и инициатив по стратегическому развитию страны. Эти изменения трудно измерить количественно, однако именно они во многом определяют качество экономической политики и её способность обеспечивать устойчивое развитие в долгосрочной перспективе.

### **3. ЭФФЕКТ ТРАНСФОРМАЦИИ**

#### **3.1 Эффект трансформации не проявляется быстро.**

Одной из характерных особенностей структурных и институциональных преобразований является их отложенный эффект. Известный английский экономист Джон Мейнард Кейнс обращал внимание на ограниченность краткосрочного взгляда на экономические процессы, отмечая, что устойчивость системы формируется именно в долгосрочной перспективе<sup>5</sup>.

Toshkent shahrida raqamli savdo va yetkazib berish xizmatlari tez rivojlanayotgan bir paytda, ushbu masala bo'yicha ishonchli empirik dalillar deyarli yo'q. Sababi oddiy: platformalarning narx belgilash algoritmlari yopiq, ichki mexanizmlar esa tadqiqotchiga ochiq emas. Shunday sharoitda eng ishonchli yo'l — audit tadqiqoti: bir xil mahsulot narxini turli sharoitlarda (masalan, guest va returning profil, web va Android qurilma) bir xil vaqt oynasida kuzatib, farqni tizimli ravishda o'lchash. Ushbu maqola aynan shu yo'lni tanlaydi va quyidagi markaziy savolga javob izlaydi:

Toshkent shahrida bir xil mahsulot (bir xil SKU) narxi foydalanuvchi profili va qurilma muhiti o'zgarganda ham, bir xil vaqt oynasi ichida sistematik tarzda farqlanadimi?

Bu savolni "to'g'ri" qo'yish muhim: agar biz bir xil mahsulotni va juda tor vaqt oralig'ini (masalan,  $\pm 5$  daqiqa) nazorat qilsak, umumiy aksiya yoki bozor tebranishi kabi omillarning ta'siri kamayadi. Shunda qoladigan farq ko'proq platforma darajasida shaxsiylashtirish ehtimolini ko'rsatishi mumkin.

Tadqiqotning asosiy yangiligi shundaki, biz narxlarni tasodifiy, parokanda usulda emas, balki sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan agentlar yordamida izchil va qayta tiklanadigan tarzda yig'amiz. Bu yondashuv uch jihatdan kuchli:

Masshtab: o'nlab mahsulotlar va ko'plab vaqt nuqtalari bo'yicha bir xil standartda ma'lumot.

Aniqlik: parallel kuzatuvlar orqali "bir xil sharoitda taqqoslash".

Tushuntiriladigan natija: SKU va vaqt bo'yicha fiks effektlar orqali "izohlanmagan premium"ni ajratish.

Maqolaning asosiy hissalari quyidagicha:

Toshkent bozorida algoritmik narx diskriminatsiyasi ehtimolini birinchi marta audit dizayn orqali empirik baholash.

Narxlarni ajratib olish, mahsulotni normalizatsiya qilish va vaqt bo'yicha sinxronlash uchun AI asosida ishlaydigan data-pipeline taklif etish. Platformalar kesimida "diskriminatsiya riski"ni ko'rsatuvchi amaliy indikatorlar ishlab chiqish orqali bozor shaffofligi va iste'molchi himoyasi bo'yicha muhokamaga dalil kiritish.

## 2. ADABIYOTLAR SHARHI

Algoritmik narxlar raqamli bozorlarda narx belgilashni avtomatlashtiradi va ko'pincha talab, zaxira, raqobat hamda vaqt signallariga javoban dinamik tarzda ishlaydi. Shu bilan birga, foydalanuvchi xulq-atvori va raqamli izlar narxni shaxsiylashtirish (birinchi darajaga yaqin narx diskriminatsiyasi) uchun axborot cheklovlarini yumshatishi mumkin. Shiller (2014) web xulq-atvori ma'lumotlari yordamida to'lovga tayyorlikni sezilarli darajada yaxshiroq bashorat qilish mumkinligini ko'rsatadi; bu esa shaxsga xos narxlar uchun iqtisodiy rag'batni kuchaytiradi

Algoritmilar yopiq bo'lgani sababli empirik muammo shundaki, tadqiqotchi "algoritm ichidagi qoida"ni emas, balki foydalanuvchiga ko'rsatilgan "chiqish natijasi"ni kuzatadi. Shu bois audit va internet-o'lchov (measurement) metodologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Hannak va boshqalar (2014) e-commerce saytlarida narx diskriminatsiyasi va "steering"ni aniqlashda vaqt, sessiya farqlari va boshqa shovqin manbalarini qat'iy nazorat qilish zarurligini ko'rsatgan hamda keng qo'llaniladigan o'lchov usullarini taklif qilgan.

Narx diskriminatsiyasini kuzatish bo'yicha yana bir klassik audit ishida Mikians va boshqalar (2012) internetda narx hamda qidiruv natijalarini diskriminatsiya qilish belgilarini empirik namoyish qilib, "watchdog" tizimi dizaynini muhokama qiladi.

Politika va tartibga solish nuqtai nazaridan shaxsiylashtirilgan narxlar shaffoflik va adolat masalalarini kuchaytiradi. OECDning "Personalised Pricing in the Digital Era" hisobotida shaxsiylashtirilgan narxlar tizimining ta'riflari, foydaxatarlar va siyosiy muhokama yo'nalishlari tizimlashtirilgan. Buyuk Britaniya CMA tomonidan tayyorlangan

iqtisodiy ishchi hujjat esa narx algoritmlarining kolluziya va shaxsiylashtirilgan narx bilan kesishuvchi xatarlarini muhokama qiladi.

So‘nggi yillarda algoritmik narxlash bo‘yicha siyosiy va akademik qiziqish ortmoqda. Masalan, NBER ishchi maqolasida algoritmik narxlash “narxni avtomatik belgilash uchun dasturlardan foydalanish” degan keng ta’rifda beriladi va amaliy qo‘llanish doiralari tahlil qilinadi. Kanadada Competition Bureau algoritmik narxlash va raqobat bo‘yicha muhokama hujjatini e’lon qilgan.

Amaliy muhokamalarda esa Bruegel (2017) Shiller (2014) natijalariga tayangan holda “katta ma’lumotlar” birinchi darajali narx diskriminatsiyasini iqtisodiy jihatdan yanada real strategiyaga aylantirishi mumkinligini yoritadi.

### 3. TADQIQOT DIZAYNI VA MA’LUMOT YIG‘ISH

Ushbu tadqiqot Toshkent shahrida raqamli savdo/yetkazib berish platformalarida bir xil mahsulot (bir xil SKU) uchun ko‘rsatiladigan narxlar foydalanuvchi kontekstiga qarab farqlanish-farqlanmasligini audit yondashuvi orqali o‘lchashga qaratilgan. Audit yondashuvi yopiq algoritmlarning ichki qoidalarini emas, tashqi natija — narx ko‘rsatkichini kuzatishga tayanganligi bilan ahamiyatli (Hannak va boshq., 2014).

Namunaviy birlik “platforma × SKU × vaqt × qurilma × profil” ko‘rinishida shakllantiriladi. SKU paneli identifikatsiyasi aniq bo‘lgan, kundalik talab yuqori va brend/hajm bo‘yicha standartlash mumkin bo‘lgan mahsulotlardan tuziladi. Dinamik narxlashdan keladigan umumiy tebranishlarni kamaytirish uchun kuzatuvlar tor vaqt oynasida sinxronlashtiriladi (masalan, ±5 daqiqa), bu yondashuv o‘lchov tadqiqotlarida shovqinni kamaytirishning asosiy usullaridan biridir (Hannak va boshq., 2014; Mikians va boshq., 2012).

**Jadval-1. Audit sharoitlari: “qurilma × profil” kombinatsiyalari**

|                       |                                                |                                                |
|-----------------------|------------------------------------------------|------------------------------------------------|
|                       | Guest (mehmon)                                 | Returning (qaytuvchi)                          |
| Web (brauzer)         | Web-Guest: cookie/cache tozalangan, login yo‘q | Web-Returning: login/akkaunt tarixi mavjud     |
| Android (mobil ilova) | Android-Guest: yangi sessiya/profil            | Android-Returning: ilova/akkaunt tarixi mavjud |

*Eslatma: Har bir kombinatsiya uchun kuzatuvlar bir xil lokatsiya (Toshkent), bir xil SKU va tor vaqt oynasida (±5 daqiqa) parallel yig‘iladi.*



**Rasm 1. Ma’lumot yig‘ish va tahlil pipeline’i (umumiy ko‘rinish)**

Pipeline’da narxlar ommaviy ko‘rinadigan sahifalardan ajratib olinadi, o‘zgaruvchilar standartlashadi, parallel kuzatuvlar vaqt bo‘yicha sinxronlanadi va juftliklar quriladi. Shaxsiy ma’lumotlar (FIO, telefon, manzil va h.k.) yig‘ilmaydi; tadqiqot faqat ochiq ko‘rinadigan narx va mahsulot atributlari bilan ishlaydi.

**Jadval 2. Asosiy o‘zgaruvchilar va operatsion ta’riflar**

| O‘zgaruvchi         | Tavsif                                                | Izoh/Nazorat                            |
|---------------------|-------------------------------------------------------|-----------------------------------------|
| <b>item_price</b>   | Mahsulotning ko‘rsatilgan narxi                       | Asosiy natija o‘zgaruvchisi             |
| <b>delivery_fee</b> | Yetkazib berish/xizmat haqi (mavjud bo‘lsa)           | Alohida va total_costda qo‘llanadi      |
| <b>total_cost</b>   | item_price + delivery_fee (+ boshqa to‘lovlar bo‘lsa) | Iste’molchi uchun real to‘lov           |
| <b>device</b>       | Qurilma kanali: web yoki Android                      | Segmentlash signali bo‘lishi mumkin     |
| <b>profile</b>      | Profil holati: guest yoki returning                   | Akkaunt tarixiga yaqin proksi           |
| <b>promo_flag</b>   | Aksiya/chegirma belgisi                               | Kampaniya shovqinini nazorat qiladi     |
| <b>stock_flag</b>   | Mavjudlik holati                                      | Variant almashinuvi xavfini kamaytiradi |
| <b>timestamp</b>    | Kuzatuv vaqti (UTC+5)                                 | Vaqt fiks effektlari uchun              |

### 4. EMPIRIK STRATEGIYA

Empirik identifikatsiya g‘oyasi shundan iborat: bir xil SKU narxi bir xil lokatsiya va tor vaqt oynasi ichida parallel kuzatilsa, umumiy narx yangilanishlari, aksiyalar va talab tebranishlari kabi omillar ta’siri kamayadi; qolgan farq esa qurilma yoki profil konteksti bilan bog‘liq bo‘lish ehtimolini kuchaytiradi (Hannak va boshq., 2014; Mikians va boshq., 2012).

Birinchi bosqichda moslashtirilgan juftliklar (matched pairs) tuziladi: masalan, bir xil platforma, bir xil SKU va bir xil ( $\pm 5$  daqiqalik) vaqt oynasida olingan Guest va Returning narxlari yoki Web va Android narxlari juftlanadi. Har bir juftlik uchun farq foiz ko‘rinishida hisoblanadi va farqlar taqsimoti o‘rtacha, median va kvartillar orqali tavsiflanadi.

Ikkinchi bosqichda SKU va vaqt fiks effektlari bilan regressiya modeli qurilib, “izohlanmagan premium” komponenti ajratiladi. Asosiy spetsifikatsiya quyidagicha:

$$\ln(P_{\{i,t,d,p\}}) = \alpha_i + \gamma_t + \beta_1 \cdot \text{Device\_d} + \beta_2 \cdot \text{Profile\_p} + \beta_3 \cdot (\text{Device\_d} \times \text{Profile\_p}) + \varepsilon_{\{i,t,d,p\}}$$

Bu yerda  $P_{\{i,t,d,p\}}$  — i-mahsulotning t vaqtida d qurilmada va p profil ostida ko‘rsatilgan narxi;  $\alpha_i$  — SKU fiks effekti;  $\gamma_t$  — vaqt fiks effekti.  $\beta_1$  va  $\beta_2$  koeffitsientlari mos ravishda qurilma va profil bo‘yicha o‘rtacha farqni,  $\beta_3$  esa ularning kombinatsiyasi narx farqini kuchaytirishini baholaydi. Model logarifmik shaklda yozilgani sababli koeffitsientlar taxminan foiz talqinida o‘qiladi.

Robustlik tekshiruvlari sifatida vaqt oynasi sezgirligi ( $\pm 3, \pm 5, \pm 10$  daqiqa), outlierlarni cheklash (winsorize yoki trimming), aksiya belgisi bo‘yicha ajratma tahlil, shuningdek item\_price va total\_cost bo‘yicha parallel natijalarni solishtirish tavsiya etiladi.


### 5. ANALIZ VA VIZUALIZATSIYA

Ushbu bo‘lim metodni tekshiriladigan formatda ko‘rsatish uchun ikki turdagi tahlilni beradi: (i) kirishdagi real hayotiy misollardan olingan mini-hisob; (ii) namuna hajmi bo‘yicha quvvat tahlili. Bu natijalar to‘liq audit ma’lumotlari yig‘ilgandan keyin beriladigan asosiy empirik jadvallar va rasmlar uchun shablon vazifasini bajaradi.

Jadval 3. Kirishdagi misollar bo‘yicha mini-hisob (foiz farq)

| Holat                             | Narx 1 (so‘m) | Narx 2 (so‘m) | Farq (so‘m) | Farq (%) |
|-----------------------------------|---------------|---------------|-------------|----------|
| Vaqt bo‘yicha (2 daq.)            | 82 000        | 86 000        | 4 000       | 4.88     |
| Qurilma bo‘yicha (Web vs Android) | 86 000        | 83 000        | -3 000      | -3.49    |

Eslatma: Jadval 3 — kirishdagi hayotiy misollar asosidagi hisob. To‘liq audit tahlilida bunday juftliklar yuzlab yoki minglab kuzatuvlar asosida tuziladi va statistik testlar hamda fiks-effekt modellari bilan baholanadi.



Rasm 2. Namuna hajmi oshganda minimal aniqlanadigan farq (quvvat tahlili)

Rasm 2 dagi egri chiziq paired/juft taqqoslashlar uchun taxminiy minimal aniqlanadigan farqni ko'rsatadi. Hisob illustrativ bo'lib,  $\sigma=0.10$  (log-farq dispersiyasi) farazi ostida  $\alpha=0.05$  va quvvat=0.80 qabul qilingan. Amaliyotda  $\sigma$  qiymati pilot kuzatuvlar orqali baholanib, namuna rejalashtirish mos ravishda yangilanadi.

**Jadval 4. Minimal amaliy namuna rejasi (audit rejalashtirish)**

| Parametr                  | Qiymat | Izoh                                              | Hisob                           | Natija (kuzatuv) |
|---------------------------|--------|---------------------------------------------------|---------------------------------|------------------|
| SKU soni                  | 40     | Har xil toifa, identifikatsiyasi aniq             | —                               | —                |
| Kunlik vaqt nuqtalari     | 6      | Masalan: 09:00, 11:00, 13:00, 15:00, 18:00, 21:00 | —                               | —                |
| Kuzatuv kunlari           | 7      | 1 haftalik minimal panel                          | —                               | —                |
| Kontekst kombinatsiyalari | 4      | Jadval 1 dagi 2×2 (web/Android × guest/returning) | —                               | —                |
| Jami kuzatuv              | —      | SKU × vaqt nuqtasi × kun × kontekst               | $40 \times 6 \times 7 \times 4$ | 6 720            |

Jadval 4 minimal reja bo'lib, platformalar soni oshirilsa yoki vaqt ufqi uzaytirilsa, kuzatuvlar tez ko'payadi. Reja tanlashda Rasm 2 dagi quvvat tahlili va pilot dispersiya bahosi birgalikda ishlatiladi.

## 6. MUHOKAMA: SHAFFOFLIK VA SIYOSIY IMPLIKATSIYALAR

Raqamli bozorlarda shaxsiylashtirilgan narxlar muhokamasi ikki asosiy masalani ko'taradi: (i) shaffoflik — iste'molchi ko'rayotgan narxning universal yoki moslashtirilgan ekanini bilish qiyin; (ii) adolat — bir xil mahsulot uchun turli foydalanuvchilardan turlicha “premium” undirilishi ehtimoli iste'molchi huquqlari va bozor ishonchiga ta'sir qiladi. OECD (2018) shaxsiylashtirilgan narxning foyda-xatarlarini, xususan “market expansion” va “surplus extraction” o'rtasidagi noaniq muvozanatni ta'kidlaydi.

Raqobat siyosati nuqtai nazaridan esa algoritmlar narx belgilashda qo'llanganda kolluziya va shaxsiylashtirish xatarlarini birgalikda ko'rish zarur: CMA (2018) iqtisodiy ishchi hujjati ushbu yo'nalishda asosiy savollarni beradi. CMAning keyingi tahlili algoritmlar iste'molchiga to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita zarar yetkazishi mumkin bo'lgan kanallarni muhokama qiladi (CMA, 2021).

Toshkent sharoitida audit natijalari (to'liq ma'lumot yig'ilgach) uch yo'nalishda amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin: 1) iste'molchi uchun raqamli savodxonlik va taqqoslash strategiyalari; 2) platformalar uchun ichki monitoring va “kutilmagan segmentlash” riskini kamaytirish; 3) tartibga soluvchi organlar uchun dalilga asoslangan shaffoflik talablari va minimal oshkorlik standartlarini muhokama qilish.

## 7. CHEKLOVLAR VA KELGUSIDAGI ISHLAR

Audit yondashuvi kuchli bo'lishiga qaramay, u algoritmnining ichki qaror qoidalarini bevosita “isbotlab” bermaydi; u faqat kuzatilgan natijani hujjatlashtiradi. Narx farqi ba'zan A/B sinovlari, logistika cheklovlari, sotuvchi/inventar almashinuvi yoki kampaniyalar sabab yuzaga kelishi mumkin. Shu bois chegirma belgisi va mavjudlik holatini nazorat qilish, vaqt oynasi sezgirligini tekshirish va natijalarni turli spetsifikatsiyalarda qayta baholash muhim.

Kelgusidagi ishlar: (i) SKU panelini kattalashtirish va kategoriyalar bo'yicha heterogenlik tahlilini kuchaytirish; (ii) vaqt ufqini uzaytirish va mavsumiylikni nazorat qilish; (iii) mahsulot narxidan tashqari xizmat haqi, yetkazib berish va boshqa “yumshoq” kanallar bo'yicha segmentlashni alohida tekshirish; (iv) natijalarni ochiq replikasiya qilish uchun anonimlashtirilgan agregat ko'rsatkichlar va protokolni taqdim etish.

## 8. XULOSA

Ushbu maqola Toshkent sharoitida raqamli platformalarda “bir xil mahsulotga turli narx” hodisasini ilmiy tekshirish uchun replikasiya qilinadigan audit dizaynini taklif etdi. Asosiy g'oya — bir xil SKU narxini tor vaqt oynasida parallel kuzatish, juftliklar qurish va SKU hamda vaqt fiks effektlari orqali “izohlanmagan premium” komponentini ajratishdir. Metodologiya yopiq algoritmlar sharoitida shaffoflik va iste'molchi himoyasi bo'yicha dalil ishlab chiqarishga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1) Bruegel. (2017). Big data and first-degree price discrimination. URL: <https://www.bruegel.org/blog-post/big-data-and-first-degree-price-discrimination>

- 2) Competition Bureau Canada. (2025). Algorithmic pricing and competition: Discussion paper. URL: <https://competition-bureau.canada.ca/en/how-we-foster-competition/education-and-outreach/publications/algorithmic-pricing-and-competition-discussion-paper>
  - 3) Competition Bureau Canada. (2026). Consultation on Algorithmic Pricing and Competition: What we heard. URL: <https://competition-bureau.canada.ca/en/how-we-foster-competition/education-and-outreach/publications/consultation-algorithmic-pricing-and-competition-what-we-heard>
  - 4) Competition and Markets Authority (CMA). (2018). Pricing algorithms: Economic working paper on the use of algorithms to facilitate collusion and personalised pricing. PDF: [https://assets.publishing.service.gov.uk/media/5bbb2384ed915d238f9cc2e7/Algorithms\\_econ\\_report.pdf](https://assets.publishing.service.gov.uk/media/5bbb2384ed915d238f9cc2e7/Algorithms_econ_report.pdf)
  - 5) Competition and Markets Authority (CMA). (2021). Algorithms: How they can reduce competition and harm consumers. PDF: [https://assets.publishing.service.gov.uk/media/60085ff4d3bf7f2aa8d9704c/Algorithms\\_%2B%2B.pdf](https://assets.publishing.service.gov.uk/media/60085ff4d3bf7f2aa8d9704c/Algorithms_%2B%2B.pdf)
  - 6) Hannak, A., Soeller, G., Lazer, D., Mislove, A., & Wilson, C. (2014). Measuring Price Discrimination and Steering on E-Commerce Web Sites. Proceedings of IMC. DOI: <https://doi.org/10.1145/2663716.2663744>
  - 7) Mikians, J., Gyarmati, L., Erramilli, V., & Laoutaris, N. (2012). Detecting price and search discrimination on the Internet. HotNets. DOI: <https://doi.org/10.1145/2390231.2390245>
  - 8) NBER. (2024). Algorithmic Pricing (Working Paper 32540, rev.1). PDF: [https://www.nber.org/system/files/working\\_papers/w32540/revisions/w32540.rev1.pdf](https://www.nber.org/system/files/working_papers/w32540/revisions/w32540.rev1.pdf)
  - 9) OECD. (2018). Personalised Pricing in the Digital Era (DAF/COMP(2018)13). PDF: <https://one.oecd.org/document/DAF/COMP%282018%2913/en/pdf>
  - 10) OECD. (2018). Personalised Pricing in the Digital Era – Summaries of Contributions (DAF/COMP/WD(2018)146). PDF: <https://one.oecd.org/document/DAF/COMP/WD%282018%29146/en/pdf>
  - 11) OECD. (2018). Personalised Pricing in the Digital Era – Note by BEUC (DAF/COMP/WD(2018)129). PDF: <https://one.oecd.org/document/DAF/COMP/WD%282018%29129/en/pdf>
  - 12) OECD. (2018). The regulation of personalised pricing in the digital era (DAF/COMP/WD(2018)150). PDF: <https://one.oecd.org/document/DAF/COMP/WD%282018%29150/en/pdf>
  - 13) Shiller, B. R. (2014). First-Degree Price Discrimination Using Big Data (Brandeis Working Paper 58, revised). PDF: [https://www.brandeis.edu/economics/RePEc/brd/doc/Brandeis\\_WP58R2.pdf](https://www.brandeis.edu/economics/RePEc/brd/doc/Brandeis_WP58R2.pdf)
-



ILMIY MAQOLA

# ДИСКРЕТНЫЙ АНАЛОГ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОГО

## ОПЕРАТОР $\frac{d^{2m}}{dx^{2m}} + 1$ .

Давронов Жавлон<sup>1</sup>, Абдурахимов Дилшод<sup>2</sup>.

1. Ташкентский Международный университет, 7, ул. Малая Халка Йули, Ташкент 100084, Узбекистан;

2. Туринский политехнический университет в Ташкенте

\* Bog'lanish uchun: [javlondavronov77@gmail.com](mailto:javlondavronov77@gmail.com)

Qabul qilindi: 13.02.2026 y. | Qayta ko'rib chiqildi: 02.03.2026 y. | Chop etildi: 2026-yil 7-mart

### ANNOTATSIA

Ушбу мақолада дифференциал операторнинг дискрет аналогини қуриш масаласи ( $\frac{d^{2m}}{dx^{2m}} + 1$ ) кўриб чиқилади. Тадқиқот С.Л. Соболев томонидан кубатур формулалар хатолик функционали нормасини минималлаштириш учун ишлаб чиқилган усулларга асосланади. Ишда жуфт  $m$  ҳолати учун операторнинг дискрет аналогини тўлиқ қурилган. Қуриш жараёнида Фурье алмашинуви усуллари, бороносимон функциялар ва қолдиқлар назариясидан фойдаланилган. Қурилган дискрет  $\frac{d^{2m}}{dx^{2m}} + 1$  операторнинг асосий хоссалари, жумладан, унинг дискрет дельта-функция билан боғлиқлиги исботланган. Олинган натижалар Соболев фазоларида оптимал квадратур ва интерполяцион формулаларни қуришда қўлланилиши мумкин.

**KALIT SO'ZLAR:** *Искрет оператор, дифференциал оператор, дискрет аналог, Фурье алмашинуви, бороносимон функциялар, дискрет дельта-функция.*

## 1. ВВЕДЕНИЕ

### 1.1 Введение и постановка задачи

Одной из актуальных задач, исследованных С.Л. Соболевым, была задача минимизации нормы функционала

$$L_2^{(m)}(R^n)$$

погрешности кубатурных формул по коэффициентам в пространстве  $L_2^{(m)}(R^n)$  и он решил ее путем приведения к системе разностных уравнений типа Винера – Хопфа. В результате ему также удалось доказать существование и единственность решения этой системы (см. [1,2,3,4]). Также он в работе [1,2,3,4] описал некоторый аналитический алгоритм отыскания оптимальных коэффициентов, причем для этого им определен

$$D_{hH}^{(m)}[\beta] \Delta^m.$$

и исследован дискретный аналог полигармонического оператора

$$D_{hH}^{(m)}[\beta]$$

Построение дискретного оператора  $D_{hH}^{(m)}[\beta]$  при произвольном  $n$  – чрезвычайно сложная задача. В одномерном случае З.Ж. Жамалов и

Х.М. Шадиметов [5,6] построили дискретный аналог дифференциального оператора  $\frac{d^{2m}}{dx^{2m}}$ . В

работах [7,8,9,10,11,12] удалось построить дискретные аналоги дифференциальных операторов

$$\frac{d^{2m}}{dx^{2m}} + 2\omega^2 \frac{d^{2m-2}}{dx^{2m-2}} + \omega^4 \frac{d^{2m-4}}{dx^{2m-4}} \dots \frac{d^{2m}}{dx^{2m}} - 1$$

, и (при m-нечетных).

В дальнейшем, вместе с функциями непрерывного аргумента мы будем рассматривать функции дискретного аргумента и соответствующие операции над ними. Приведем некоторые определения.

$$\varphi[\beta] = \varphi[\beta_1, \beta_2, \dots, \beta_n]$$

**Определение 1.1.** Функцию называют функцией дискретного аргумента, если

$$\beta = (\beta_1, \beta_2, \dots, \beta_n)$$

она задана на некотором множестве целочисленных значений

$$\varphi[\beta] \text{ и } \psi[\beta]$$

**Определение 1.2.** Скалярным произведением двух дискретных функций и называют число

$$[\varphi, \psi] = \sum_{\beta=-\infty}^{\infty} \varphi[\beta] \cdot \psi[\beta],$$

если ряд в правой части последнего равенства абсолютно сходится.

$$\varphi[\beta] \text{ и } \psi[\beta]$$

**Определение 1.3.** Сверткой двух функций и называется скалярное произведение

$$\varphi[\beta] * \psi[\beta] = [\varphi[\gamma], \psi[\beta - \gamma]] = \sum_{\gamma=-\infty}^{\infty} \varphi[\gamma] \cdot \psi[\beta - \gamma].$$

$$D_m[\beta]$$

В этом параграфе нами рассматривается задача построения дискретной функции, которая удовлетворяет равенству

$$D_m[\beta] * G_m[\beta] = \delta[\beta], \quad (1.1)$$

где

$$G_m[\beta] = -\frac{\text{sign}[\beta]}{2m} \cdot \left( \sum_{k=1}^m e^{[\beta] \cos \frac{(2k-1)\pi}{2m}} \cos \left( [\beta] \sin \frac{(2k-1)\pi}{2m} + \frac{(2k-1)\pi}{2m} \right) \right), \quad (1.2)$$

$m$  – четное,

$$\delta[\beta] = \begin{cases} 1, & \beta = 0, \\ 0, & \beta \neq 0, \end{cases} \quad [\beta] = h\beta, \quad h = \frac{1}{N}, \quad N = 1, 2, \dots$$

$$D_m[\beta]$$

Следует отметить, что метод построения аналогичен методу построения дискретных аналогов

$$\frac{d^{2m}}{dx^{2m}}, \frac{d^{2m}}{dx^{2m}} - \frac{d^{2m-2}}{dx^{2m-2}}, \frac{d^4}{dx^4} + 2\frac{d^2}{dx^2} + 1 \dots \frac{d^6}{dx^6} - 1$$

и которые приведены в работах [6, 10, 13].

## 2. МЕТОДОЛОГИЯ

## 2.1 Известные формулы и некоторые обозначения

В этом параграфе нами используются следующие известные формулы обобщенных функций и преобразования Фурье [15]. Прямое и обратное преобразования Фурье функции  $\varphi$  определяются

$$F[\varphi(x)] = \int_{-\infty}^{\infty} \varphi(x) e^{2\pi i p x} dx, \quad F^{-1}[\varphi(p)] = \int_{-\infty}^{\infty} \varphi(p) e^{-2\pi i p x} dp. \quad (1.5)$$

Преобразование Фурье произведения и свертки функций  $\varphi$  и  $\psi$ :

$$F[\varphi * \psi] = F[\varphi] \cdot F[\psi], \quad (1.6)$$

$$F[\varphi \cdot \psi] = F[\varphi] * F[\psi], \quad (1.7)$$

Для дельта-функции и ее производных имеют места следующие

$$F[\delta(x)] = 1, \quad F[\delta^{(\alpha)}(x)] = (-2\pi i p)^\alpha. \quad (1.8)$$

Мы используем также следующие известные свойства дельта-функции

$$\delta(hx) = h^{-1} \delta(x), \quad (1.9)$$

$$\delta(x - a) \cdot f(x) = \delta(x - a) \cdot f(a), \quad (1.10)$$

$$\delta^{(\alpha)}(x) * f(x) = f^{(\alpha)}(x), \quad (1.11)$$

$$\varphi_0(x) = \sum_{\beta=-\infty}^{\infty} \delta(x - \beta), \quad \sum_{\beta} e^{2\pi i x \beta} = \sum_{\beta} \delta(x - \beta). \quad (1.12)$$

Дискретная функция  $D_m[\beta]$  играет важную роль при вычислении коэффициентов оптимальных квадратурных и интерполяционных формул в пространстве  $L_2^{(m,0)}$ . Отметим, что уравнение (1.1) является дискретным аналогом следующего уравнения

$$\left( \frac{d^{2m}}{dx^{2m}} + 1 \right) \cdot G_m(x) = \delta(x), \quad (1.3)$$

где

$$G_m(x) = -\frac{\text{sign}(x)}{2m} \cdot \left( \sum_{k=1}^m e^{x \cos \frac{(2k-1)\pi}{2m}} \cos \left( x \sin \frac{(2k-1)\pi}{2m} + \frac{(2k-1)\pi}{2m} \right) \right),$$

$\delta(x)$  - дельта-функция Дирака.

Введем следующие обозначения

$$\begin{aligned}
a_{1k} &= e^{\frac{h \cos \frac{(2k-1)\pi}{2m}}{2m}} \cos \left( h \sin \frac{(2k-1)\pi}{2m} + \frac{(2k-1)\pi}{2m} \right) \\
&\quad - e^{-\frac{h \cos \frac{(2k-1)\pi}{2m}}{2m}} \cos \left( h \sin \frac{(2k-1)\pi}{2m} - \frac{(2k-1)\pi}{2m} \right) \\
a_{2,k} &= 2 \left( \sin \frac{(2k-1)\pi}{2m} \sin \left( 2h \sin \frac{(2k-1)\pi}{2m} \right) - \cos \frac{(2k-1)\pi}{2m} \sinh \left( 2h \sin \frac{(2k-1)\pi}{2m} \right) \right), \\
b_{1,k} &= -4 \cosh \left( h \cos \frac{(2k-1)\pi}{2m} \right) \cdot \cos \left( h \cdot \sin \frac{(2k-1)\pi}{2m} \right), \\
b_{2,k} &= 2 \left[ 1 + ch \left( 2h \cdot \cos \frac{(2k-1)\pi}{2m} \right) + \cos \left( 2h \sin \frac{(2k-1)\pi}{2m} \right) \right].
\end{aligned}$$

## 2. ПОСТРОЕНИЕ ДИСКРЕТНОГО АНАЛОГА ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОГО ОПЕРАТОРА

Основными результатами этого параграфа являются следующие теоремы.

**Теорема 1.1.** Дискретный аналог дифференциального оператора  $\frac{d^{2m}}{dx^{2m}} + 1$ , удовлетворяющий равенству (1.1), при  $m$  – четном имеет вид

$$D_m[\beta] = -\frac{m}{K} \cdot \begin{cases} \sum_{k=1}^{m-1} A_k \cdot \lambda_k^{|\beta|-1}, & |\beta| \geq 2, \\ 1 + \sum_{k=1}^{m-1} A_k, & |\beta| = 1, \\ M_1 - K_1 + \sum_{k=1}^{m-1} \frac{A_k}{\lambda_k}, & \beta = 0, \end{cases} \quad (1.4)$$

где

$$K = \sum_{k=1}^{\frac{m}{2}} a_{1,k}, \quad M_1 = \sum_{k=1}^{\frac{m}{2}} b_{1,k}, \quad K_1 = \frac{\sum_{k=1}^{\frac{m}{2}} \left( a_{2,k} + a_{1,k} \sum_{j=1, j \neq k}^{\frac{m}{2}} b_{1,j} \right)}{K},$$

$$A_k = \frac{A_{2m}(\lambda_k)}{\lambda_k \cdot (Q_{2m-2}(\lambda_k))'}, \quad P_{2m-2}(\lambda) = K Q_{2m-2}(\lambda) \quad Q_{2m-2}(\lambda) = \prod_{k=1}^{2m-2} (\lambda - \lambda_k)$$

$$A_{2m}(\lambda) = \prod_{k=1}^{\frac{m}{2}} (\lambda^4 + b_{1k} \lambda^3 + b_{2k} \lambda^2 + b_{3k} \lambda + b_{4k}) \quad P_{2m-2}(\lambda) = \prod_{k=1}^{\frac{m}{2}} A_k(\lambda) \sum_{j=1}^{\frac{m}{2}} \frac{B_j(\lambda)}{A_j(\lambda)}$$

$$B_j(\lambda) = a_{1,j} \lambda^2 + a_{2,j} \lambda + a_{1,j}$$

$$\lambda_k \quad Q_{2m-2}(\lambda) \quad |\lambda_k| < 1$$

– корни многочлена по модулю меньше единицы, т.е.

$h$

– малый положительный параметр.

$$D_m[\beta] \quad \frac{d^{2m}}{dx^{2m}} + 1$$

**Теорема 1.2.** Дискретный аналог дифференциального оператора удовлетворяет равенствам

$$D_m[\beta] \star e^{[\beta] \cos\left(\frac{(2k-1)\pi}{2m}\right)} \cdot \cos\left([\beta] \sin\frac{(2k-1)\pi}{2m}\right) = 0, \quad k = \overline{1, m}$$

1)

$$D_m[\beta] \star e^{[\beta] \cos\left(\frac{(2k-1)\pi}{2m}\right)} \cdot \sin\left([\beta] \sin\frac{(2k-1)\pi}{2m}\right) = 0, \quad k = \overline{1, m}$$

2)

$$G_m[\beta] \quad \delta[\beta] -$$

Здесь  $G_m[\beta]$  определяется равенством (1.2), а дискретная дельта – функция.

**Доказательство теорема 1.1.**

Вместо функций дискретного аргумента удобно перейти к боронообразным функциям и выполнить действия

над ними. Боронообразная функция, соответствующая функции дискретного аргумента  $D_m[\beta]$ , имеет вид

$$\mathbb{D}_m(x) = \sum_{\beta=-\infty}^{\infty} D_m[\beta] \cdot \delta(x - h\beta).$$

Теперь, используя определение боронообразных функций, вместо уравнения (1.1) мы рассмотрим следующее эквивалентное уравнение в боронообразных функциях.

$$\mathbb{D}_m(x) \star \mathbb{G}_m(x) = \delta(x). \quad (1.13)$$

$$\mathbb{D}_m(x) = \delta(x) \quad \mathbb{G}_m(x) = \sum_{\beta=-\infty}^{\infty} G_m[\beta] \cdot \delta(x - h\beta) -$$

При этом следует учитывать, что и

$$G_m[\beta].$$

боронообразная функция, соответствующая дискретной функции

Далее, применяя к обеим частям уравнения (1.13) преобразование Фурье и учитывая (1.6) и (1.8), получаем

$$F\left[\mathbb{B}_m(x)\right]=\frac{1}{F\left[\mathbb{G}_m(x)\right]}.$$

(1.14)

$$F\left[\mathbb{G}_m(x)\right]$$

Отсюда видно, что нам требуется преобразование Фурье функции  $G_m(x)$ . Учитывая (1.10), (1.12), а также используя формулы (1.7) и (1.9), имеем

$$F\left[\mathbb{G}_m(x)\right]=F\left[G_m(x)\right]\star\varphi_0(hp).$$

(1.15)

$$F\left[G_m(x)\right]$$

$$G_m(x)$$

Чтобы вычислить преобразование Фурье функции  $G_m(x)$ , мы используем равенства (1.3) и (1.11). Тогда с учётом равенств (1.6) и (1.8) получим

$$F\left[G_m(x)\right]=\frac{1}{(2\pi ip)^{2m}+1},\quad m=2n,\quad n=1,2,\dots$$

(1.16)

$$s^{2m}+1=0$$

Корни уравнения  $s^{2m}+1=0$  обозначим

$$s_k=\cos\left(\frac{(2k-1)\pi}{2m}\right)+i\sin\left(\frac{(2k-1)\pi}{2m}\right),\quad k=\overline{1,2m}$$

(1.16) и (1.14) дает . Тогда вычисление свертки (1.15) с учетом

$$F\left[\mathbb{B}_m\right](p)=-h\cdot\left(-\frac{2\pi i}{h}\right)^{2m}\cdot\left[\sum_{\beta}\frac{1}{\left[z-h\left(p+\frac{is_1}{2\pi}\right)\right]\left[z-h\left(p+\frac{is_2}{2\pi}\right)\right]...\left[z-h\left(p+\frac{is_{2m}}{2\pi}\right)\right]}\right]^{-1}.$$

(1.17)

$$F\left[\mathbb{B}_m\right](p)$$

Предположим, что ряд Фурье функции имеет вид

$$F\left[\mathbb{B}_m\right](p)=\sum_{\beta=-\infty}^{\infty}\hat{D}_m[\beta]e^{2\pi ip h\beta},$$

(1.18)

$$\hat{D}_m[\beta]-$$

$$F\left[\mathbb{B}_m\right](p)$$

где коэффициенты Фурье функции, т.е.

$$\hat{D}_m[\beta]=\int_0^{h^{-1}}F\left[\mathbb{B}_m\right](p)e^{-2\pi ip h\beta}dp.$$

(1.19)

Применив обратное преобразование Фурье к равенству (1.18), получим борнообразную функцию

$$\mathbb{D}_m(x) = \sum_{\beta=-\infty}^{\infty} \hat{D}_m[\beta] \delta(x - h\beta)$$

Отсюда, основываясь на определении борнообразных функций заключаем, что дискретная функция  $\hat{D}_m[\beta]$  и есть искомая функция дискретного аргумента  $D_m[\beta]$ . Здесь функцию  $\hat{D}_m[\beta]$  найдем следующим путем. Для того чтобы вычислить бесконечный ряд в (1.17), воспользуемся следующей известной формулой из теории вычетов [cite{\bibitem{14}}]

$$\sum_{\beta=-\infty}^{\infty} f(\beta) = - \sum_{z_1, z_2, \dots, z_{2m}} \text{выч}(\pi \text{ctg}(\pi z) f(z)) , \quad (1.20)$$

где  $z_1, z_2, \dots, z_{2m}$  – полюсы функции  $f(z)$ .

Обозначим

$$f(z) = \frac{1}{\left[ z - h \left( p + \frac{is_1}{2\pi} \right) \right] \left[ z - h \left( p + \frac{is_2}{2\pi} \right) \right] \dots \left[ z - h \left( p + \frac{is_{2m}}{2\pi} \right) \right]} .$$

Здесь  $z_k = h \left[ p + \frac{s_k i}{2\pi} \right] , k = \overline{1, 2m}$  полюсы первого порядка. Тогда, учитывая (1.20) из (1.17) получаем

$$F[\mathbb{D}_m](p) = -h \cdot \left( -\frac{2\pi i}{h} \right)^{2m} \cdot \left[ \sum_{z_1, z_2, \dots, z_{2m}} \text{res}(\pi \text{ctg}(\pi z) \cdot f(z)) \right]^{-1} . \quad (1.21)$$

Имеем

$$\text{выч}_{z=z_1}(\pi \text{ctg}(\pi z) f(z)) = - \left( -\frac{2\pi i}{h} \right)^{2m-1} \frac{\pi s_1}{2m} \text{ctg} \left( \pi h p + \frac{s_1 h i}{2} \right) ,$$

$$\text{выч}_{z=z_2}(\pi \text{ctg}(\pi z) f(z)) = - \left( -\frac{2\pi i}{h} \right)^{2m-1} \frac{\pi s_2}{2m} \text{ctg} \left( \pi h p + \frac{s_2 h i}{2} \right) ,$$

... ..

$$\text{выч}_{z=z_{2m-1}}(\pi \text{ctg}(\pi z) f(z)) = - \left( -\frac{2\pi i}{h} \right)^{2m-1} \frac{\pi s_{2m-1}}{2m} \text{ctg} \left( \pi h p + \frac{s_{2m-1} h i}{2} \right) ,$$

$$\text{выч}_{z=z_{2m}}(\pi \text{ctg}(\pi z) f(z)) = - \left( -\frac{2\pi i}{h} \right)^{2m-1} \frac{\pi s_{2m}}{2m} \text{ctg} \left( \pi h p + \frac{s_{2m} h i}{2} \right) .$$

Введя обозначение  $\lambda = e^{2\pi i p h}$ , используя последние  $2m-2$  равенства и учитывая следующие известные формулы

$$\cos(z) = \frac{e^{zi} + e^{-zi}}{2}, \quad \sin(z) = \frac{e^{zi} - e^{-zi}}{2i}, \quad \cosh(z) = \frac{e^z + e^{-z}}{2},$$

$$\sinh(z) = \frac{e^z - e^{-z}}{2}, \quad F\left[\begin{matrix} \mathbb{B} \\ \mathbb{B}_m \end{matrix}\right](p)$$

, после некоторых упрощений из (1.21) для  $D_m[\beta]$  получим

$$F\left[\begin{matrix} \mathbb{B} \\ \mathbb{B}_m \end{matrix}\right](p) = -\frac{m}{K} \cdot \frac{A_{2m}(\lambda)}{\lambda Q_{2m-2}(\lambda)} = -\frac{m}{K} \cdot \left( \lambda + M_1 - K_1 + \frac{S_{2m-2}(\lambda)}{\lambda Q_{2m-2}(\lambda)} \right). \quad (1.22)$$

Для того чтобы найти явный вид дискретного оператора  $D_m[\beta]$  равенство (1.22) разлагаем на элементарные дроби. Так как многочлен  $Q_{2m-2}(\lambda)$  из

теоремы 1.1 имеет  $2m-2$  действительных корней и  $\lambda_1 \cdot \lambda_2 \cdot \dots \cdot \lambda_{2m-3} \cdot \lambda_{2m-2} = 1$ , где  $\lambda_j \cdot \lambda_{2m-1-j} = 1, j = 1, m-1$ , то для правой части (1.22) имеем

$$\frac{A_{2m}(\lambda)}{\lambda Q_{2m-2}(\lambda)} = \lambda + M_1 - K_1 + \frac{A_0}{\lambda} + \frac{A_1}{\lambda - \lambda_1} + \frac{A_2}{\lambda - \lambda_2} + \dots + \frac{A_{2m-2}}{\lambda - \lambda_{2m-2}}. \quad (1.23)$$

Для того чтобы найти неизвестные коэффициенты  $A_0, A_1, A_2, \dots, A_{2m-3}, A_{2m-2}$  уравнения (1.23), умножив обе части уравнения (1.23) на  $\lambda(\lambda - \lambda_1)(\lambda - \lambda_2) \cdot \dots \cdot (\lambda - \lambda_{2m-3})(\lambda - \lambda_{2m-2})$ , непосредственно имеем

$$A_0 = 1 \quad (1.24)$$

$\lambda = \lambda_k$  ( $k = \overline{1, 2m-2}$ )  
при

$$A_k = \frac{A_{2m}(\lambda_k)}{\lambda_k \cdot Q'_{2m-2}(\lambda_k)}. \quad (1.25)$$

Отсюда, учитывая, что  $\lambda_1 \cdot \lambda_2 \cdot \dots \cdot \lambda_{2m-3} \cdot \lambda_{2m-2} = 1$ , имеем

$$A_{2m-2} = -\frac{1}{\lambda_1^2} A_1, \quad A_{2m-3} = -\frac{1}{\lambda_2^2} A_2, \dots \quad (1.26)$$

$$|\lambda| = 1 \quad \lambda_j \cdot \lambda_{2m-1-j} = 1, \quad j = \overline{1, m-1}$$

Наконец, учитывая равенства (1.24) - (1.26) имея ввиду, что  $\lambda_j \cdot \lambda_{2m-1-j} = 1$ , и пользуясь формулой для суммы бесконечно убывающей геометрической прогрессии, из (1.23) получим

$$F\left[\mathbb{D}_m\right](p) = -\frac{m}{K} \cdot \left[ \lambda + M_1 - K_1 + \frac{1}{\lambda} + \sum_{j=0}^{\infty} \sum_{j=1}^{2m-2} \left[ \frac{A_j}{\lambda} \left( \frac{\lambda_j}{\lambda} \right)^j + \frac{A_j}{\lambda_j} (\lambda_j \lambda)^j \right] \right] = \sum_{j=-\infty}^{\infty} D_m[j] \lambda^j.$$

Отсюда, имея виду, что  $\lambda = e^{2\pi i p h}$ , получим явный вид (1.4) дискретной функции  $D_m[\beta]$ . Теорема 1.1 доказана.

Доказательство теоремы 1.2 получается с использованием определения свертки дискретных функций и непосредственным вычислением левых сторон равенств 1) и 2). В (1.4) заметим, что функция  $D_m[\beta]$

$$D_m[-\beta] = D_m[\beta]$$

четная, т.е.,

### 3. СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

- 1) Соболев С.Л. Введение в теорию кубатурных формул. – М.: Наука, 1974. - 808 с.
- 2) Соболев С.Л. Коэффициенты оптимальных квадратурных формул // Доклады АН СССР. – Москва, 1977. - Т. 235, № 1. - С. 34-37.
- 3) Sobolev S.L. The coefficients of optimal quadrature formulas, in: Selected works of S.L.Sobolev, Springer US (2006). – pp. 561–566.
- 4) Sobolev S.L., Vaskevich V.L. The theory of cubature formulas, Kluwer Academic Publishers Group. - Dordrecht, 1997.
- 5) 5. Жамалов З.Ж. Об одном разностном аналоге оператора и его построение // Прямые и обратные задачи для дифференциальных уравнений с частными производными и их приложения. -Ташкент: Фан,1978-С.97- 108.
- 6) Шадиметов Х.М. Дискретный аналог оператора и его построение // Вопросы вычисл. и прикл. математики: Сб. науч. тр. – Ташкент: ИК АН РУз, 1985. - вып. 79. - С. 22-35.
- 7) Шадиметов Х.М., Хаётов А.Р. Дискретный аналог одного дифференциального оператора : — Кубатурные формулы и их приложения: Материалы VI международного семинара-совещания. - Уфа:,2001, -С.149-154.
- 8) Шадиметов Х.М., Хаётов А.Р. Оптимальные квадратурные формулы в смысле Сарда  $K_2(P_m)$  пространстве. Материалы научной конференции. - Ташкент: 2013.
- 9) Шадиметов Х.М., Хаётов А.Р. Построение дискретного аналога дифференциального оператора  $d^{2m}/dx^{2m} - d^{2m-2}/dx^{2m-2}$ , Уз.Мат. Журнал, 2004, №2, С. 85-95.
- 10) Шадиметов Х.М., Хаётов А.Р. Свойства дискретного аналога дифференциального оператора  $\frac{d^{2m}}{dx^{2m}} - \frac{d^{2m-2}}{dx^{2m-2}}$ , Уз.Мат. Журнал, 2004, №4, С. 72-83.
- 11) Хаётов А.Р. Дискретные аналоги некоторых дифференциальных операторов // Узбекский математический журнал. –Ташкент, 2012. -№ 1. -С.151-155
- 12) Hayotov A.R. The discrete analogue of a differential operator and its applications, Lithuanian Mathematical Journal, 2014, 54, no 3, 290–307.

$$\frac{d^4}{dx^4} + 2\frac{d^2}{dx^2} + 1$$

- 13) Хаётов А.Р. Построение дискретного аналога дифференциального оператора  $\frac{d^4}{dx^4} + 2\frac{d^2}{dx^2} + 1$  и его свойства // Узбекский математический журнал. –Ташкент, 2009. -№ 3. -С.81-88
  - 14) Мақсудов Ш., Салохитдинов М.С., Сирожиддинов С.Ҳ. Комплекс ўзгарувчининг функциялари назарияси. ~ -Тошкент, 1976, -363 б.
  - 15) Владимиров В.С. Обобщенные функции в математической физике.~ М.: Наука, – 1979.
-